



UDK: 801.82:81.172

Nasiba XO'SHBAQOVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: khushbakovan@gmail.com

PhD O'.Xudoynazarova taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA YO'L BELGILARIGA OID TERMINLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buyuk Britaniya va O'zbekiston yo'l belgilari tizimlari shunchaki texnik vosita sifatida emas, balki chuqur lingvomadaniy hodisa sifatida tahlil qilinadi. Maqolada ikki mamlakat yo'l belgilarining terminologiyasi, nolisoni elementlari (rang, shakl, piktogramma) va dizayn falsafasi qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlil natijasida Britaniya tizimining pragmatik, individualistik va informatsion yondashuvi O'zbekiston tizimining standartlashgan, jamoaviy va buyruqqa asoslangan tabiatidan farqlanishi ko'rsatib beriladi. Muallif yo'l belgilari orqali milliy xarakter, ijtimoiy munosabatlar va kommunikativ strategiyalarni o'rganish mumkinligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Yo'l belgilari, lingvomadaniy, madaniy matn, nolisoni muloqot (neverbal kommunikatsiya), qiyosiy tahlil, piktogramma, milliy mentalitet, pragmatik yondashuv.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕРМИНОВ ДОРОЖНЫХ ЗНАКОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье системы дорожных знаков Великобритании и Узбекистана анализируются не просто как техническое средство, а как глубокое лингвокультурное явление. В статье проводится сравнительный анализ терминологии, невербальных элементов (цвет, форма, пиктограмма) и философии дизайна дорожных знаков двух стран. Анализ показывает, как прагматичный, индивидуалистический и информационный подход британской системы отличается от стандартизированного, коллективистского и предписывающего характера системы Узбекистана. Автор обосновывает, что через дорожные знаки можно изучать национальный характер, социальные отношения и коммуникативные стратегии.

Ключевые слова: дорожные знаки, лингвокультурология, культурный текст, невербальная коммуникация, сравнительный анализ, пиктограмма, национальный менталитет, прагматический подход.

LINGUOCULTURAL FEATURES OF ROAD SIGN TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article analyzes the road sign systems of Great Britain and Uzbekistan not merely as technical tools, but as a profound linguocultural phenomenon. The paper provides a comparative analysis of the terminology, non-verbal elements (color, shape, pictogram), and design philosophy of the two countries' road signs. The analysis reveals that the pragmatic, individualistic, and informational approach of the British system contrasts with the standardized, collectivist, and command-based nature of the system in Uzbekistan. The author substantiates that national character, social relations, and communicative strategies can be studied through road signs.

Key words: road signs, linguoculturology, cultural text, non-verbal communication, comparative analysis, pictogram, national mentality, pragmatic approach.

Kirish. Har kuni yo'llarda duch keladigan oddiy yo'l belgilari, bir qarashda, faqatgina harakatni tartibga soluvchi texnik vositadek tuyulishi mumkin. Biroq, ularning terminologiyasi va dizayniga chuqurroq nazar tashlansa, bu belgilar shunchaki ko'rsatma emas, balki butun bir millatning o'ziga xosligini ochib beruvchi lingvomadaniy hodisa ekani ayon bo'ladi. Ular jamiyatning yozilmagan qonunlari, ustuvorliklari va o'zaro muloqot madaniyatining so'zsiz ifodasidir. Buyuk Britaniya va O'zbekiston yo'l belgilarini lingvomadaniy jihatdan taqqoslash shunchaki texnik qoidalaridagi farqlarni emas, balki ikki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va tarixiy tajribasidagi chuqur

tafovutlarni ochib beradi. Bu tizimlar o'zida falsafa, geografiya, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar va estetik yondashuvlarni aks ettiruvchi o'ziga xos "madaniy matn" hisoblanadi. Ushbu "madaniy matn"ni o'qish orqali biz nafaqat "to'xta" yoki "buril" kabi yuzaki buyruqlarni, balki hokimiyatning o'z fuqarosiga qanday murojaat qilishini – u bilan qat'iy buyruq ohangida so'zlashadimi yoki maslahat beruvchi hamkor sifatida muloqot qiladimi – anglashimiz mumkin. Aynan terminlarning tanlanishi – "tavsiya etiladi" (advisory) va "taqiqlanadi" (prohibited), "yashirin pastlik" (hidden dip) va "sirpanchiq yo'l" (slippery road) kabi iboralar – ikki jamiyatning xavfni idrok etishi, shaxsiy

mas'uliyatga yondashuvi va atrof-muhit bilan munosabatidagi nozik farqlarni ko'rsatib beradi. Shu bois, ushbu tahlil ikki mamlakat yo'l belgilari tizimini leksik-semantik va pragmatik jihatdan qiyoslab, ularning zamiridagi milliy xarakter, ijtimoiy tuzilma va kommunikativ falsafani ochib berishga qaratilgan. Bu taqqoslash bizga har bir belgi ortida qanday madaniy kod yashiringanini tushunishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yo'l belgilari va ularning atamaları nafaqat tilshunoslik, balki lingvomadaniyatshunoslik va pragmalingsvistik tahlil uchun ham dolzarb tadqiqot obyekti. Mazkur maqola doirasida o'rganilayotgan yo'l belgilari atamalarining ingliz va o'zbek tillaridagi lingvomadaniy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish uchun til, madaniyat, va nutqning kontekstual o'zaro aloqalarini yorituvchi bir qator nazariy manbalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi navbatda, V.A. Maslova o'zining "Лингвокультуралогия" nomli asarida til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi. U tilni madaniyatning bir ko'rinishi sifatida talqin qiladi hamda lingvomadaniyatshunoslik fanining asosiy tushunchalari - konsept, milliy-madaniy komponent, mentalitet, stereotiplar haqida batafsil ma'lumot beradi. Ushbu nuqtai nazardan qaraganda, yo'l belgilari atamaları ham o'zida muayyan xalqning madaniy qarashlarini, qadriyatlarini, jamoaviy ongda xavfsizlik tasavvurlarini aks ettiradi. Maslova til vositasida shakllangan madaniy tafakkurni o'rganishda semantik va assotsiativ tahlil usullarini taklif etadi, bu uslublar yo'l belgilariga berilgan nomlarning ingliz va o'zbek tillaridagi farqlarini o'rganishda ayniqsa foydalidir [4].

Sh. Safarovning "Pragmalingsvistika" kitobi ushbu mavzuga kommunikativ vaziyat, nutq maqsadi, kontekst kabi omillar orqali yondashish imkonini beradi. Sh. Safarov pragmatik yondashuv orqali til birliklarining qanday sharoitda, qanday maqsadda ishlatilishini o'rganadi. Yo'l belgilari esa to'g'ridan-to'g'ri kommunikativ vazifani bajaruvchi belgilardir: ular haydovchiga, piyodaga yoki transport boshqaruvchisiga aniq ko'rsatma beradi. Shu bois, pragmatik jihatdan yo'l belgilarini belgilovchi terminlar nafaqat til, balki ijtimoiy konvensiyalar, huquqiy me'yorlar va mental xususiyatlarga bog'liq bo'ladi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz va o'zbek tillarida yo'l belgilariga oid terminlarining lingvomadaniy xususiyatlariga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning chog'ishtirma tahlil, analogik tahlil, analiz, sintez singari metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ikki tizim o'rtasidagi eng asosiy farq hokimiyat va fuqaro (haydovchi) o'rtasidagi munosabatda namoyon bo'ladi. Buyuk Britaniya tizimi ma'lumot berishga asoslanadi. Bu yerda haydovchi ongli va mas'uliyatli subyekt, hokimiyat esa uning informatsion sherigi sifatida ko'riladi. Belgilar buyruq berishdan ko'ra, vaziyatni individual baholashga va mustaqil qaror qabul qilishga undaydi. Bunga "Try your brakes" (Tormozlarni tekshirib ko'ring), "Advisory route for lorries" (Yuk mashinalari uchun tavsiya etilgan yo'nalish) yoki "Hidden dip" (Yashirin pastlik) kabi misollar yaqqol dalil bo'la oladi. Aksincha, O'zbekiston yo'l tizimida buyruq berish yondashuvi ustun turadi. Bu tizimda haydovchi boshqariluvchi va tartibga solinuvchi obyekt sifatida qabul qilinadi, hokimiyat esa g'amxo'r,

biroq qattiqqo'l "ota" rolini bajaradi. Bu yerda qoida shaxsiy mulohazadan ustun qo'yiladi. "To'xtamasdan harakatlanish taqiqlangan", "Quvib o'tish taqiqlanadi" hamda tezlikni qat'iy belgilovchi "Eng kam tezlik" va "Eng yuqori tezlik" belgilari bunga misoldir [2].

Har bir mamlakatning geografik xususiyatlari yo'l belgilarida o'z aksini topgan. Xususan, Buyuk Britaniya nam iqlimi va murakkab relyefi bilan ajralib turadi. Shu sababli yo'l belgilarida dengiz, daryolar, kanallar, notekis yerlar va o'zgaruvchan ob-havo bilan bog'liq xavflar birinchi o'rinda turadi. Masalan, "Quayside or river bank" (Sohilga chiqish), "Risk of ice / Snowdrifts" (Muzlash / Qor uyumi xavfi) va "Road liable to flooding" (Suv toshqini xavfi) kabi belgilar shundan dalolat beradi. Ammo, O'zbekistonning kontinental, quruq iqlimi, keng tekisliklar va tog'li hududlarga egaligi sababli yo'l belgilarida quruqlikdagi xavflar ustunlik qiladi. Bularga tog'lar, cho'llar va agrar landshaftga oid holatlar kiradi. "Toshlar tushishi", "Yonlama shamol", "Mol haydab o'tish", ayniqsa dovonlarda uchraydigan "Tik nishablik" va yozda erigan asfalt yoki sug'orish suvlaridan hosil bo'ladigan "Sirpanchik yo'l" kabi belgilar bunga yaqqol misoldir.

Yo'l belgilari jamiyatdagi qadriyatlarni ham ifodalaydi. Britaniya jamiyatida individualizm, inklyuzivlik va bo'sh vaqt madaniyatiga bo'lgan e'tibor kuchli. Yo'l belgilari jamiyatdagi har bir shaxsning, hatto eng kichik guruhlarining ham ehtiyojlari va xavfsizligini tan oladi. "Frail or disabled pedestrians" (Zaif yoki nogiron piyodalar), "Blind pedestrians" (Ko'zi ojiz piyodalar) kabi belgilar inklyuzivlikni ko'rsatsa, "Otters/Toads/Ducks crossing" (Hayvonlar kesishmasi) va turli hordiq maskanlarini bildiruvchi "Camping/Picnic/Golf" belgilari tabiat va bo'sh vaqtga bo'lgan yuksak qadriyatni ifodalaydi. O'zbekistonda esa jamoaviylik, oilaviy qadriyatlar va mehmondo'stlik muhim o'rin tutadi. Jamoaviy munosabatlar, oila va ayniqsa bolalar xavfsizligiga alohida urg'u beriladi. Masalan, "Bolalar" belgisi deyarli hamma joyda uchrashi mumkin. Shu bilan birga, "Choyxona", "Oshxona", "Bozor" kabi axborot belgilari nafaqat xizmat ko'rsatish obyektlarini, balki o'zbek turmush tarzining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy va an'anaviy markazlarni ham anglatadi [3].

Mamlakatlarning siyosiy tarixi va davlatchilik an'analari ham yo'l belgilarida iz qoldirgan. Buyuk Britaniyada post-imperial, evolyutsion rivojlanish va markazsizlashuv tendensiyalari seziladi. Tarixiy merosni asrab-avaylash, xususiy mulk daxlsizligi va mintaqaviy o'zliklarni hurmat qilish kuchli. Buni "National Trust property" (Milliy fond mulki), "World Heritage site" (Jahon merosi obyekti), Uels va Shotlandiyadagi ikki tildagi belgilar ("Bilingual signs") hamda "No unauthorised vehicles" (Xususiy mulk) kabi belgilar tasdiqlaydi. O'zbekiston tizimi postsovet, mustaqillik va markazlashgan davlatchilik qurilishi davrining mahsulidir. Bu tizimda davlat suvereniteti, chegaralar daxlsizligi va ichki nazoratga bo'lgan urg'u kuchli. Sovet davridan meros qolgan GOST standartlariga asoslangan raqamlash va dizayn, shuningdek, "Nazorat posti", "Bojxona", "Chegara hududi" kabi belgilar bunga misol. Zamonaviy nazorat vositasi sifatida "Fotosurat va videofiksatsiya" belgisi ham shu yo'nalishning davomidir.

Buyuk Britaniyada diniy obyektlar uchun maxsus piktogrammalar deyarli yo'q. Cherkov yoki boshqa

ibodatxonalar ko'pincha so'z bilan ("St. Paul's Cathedral") yoki umumiy turistik obyekt ("Historic building") sifatida ko'rsatiladi va umumiy turistik yo'nalish ko'rsatkichlari tarkibiga kiradi. O'zbekiston tizimi ham dunyoviy bo'lsa-da, madaniy o'zlikda diniy merosga alohida urg'u beriladi. Turistik belgilarda islom sivilizatsiyasi bilan bog'liq madaniy meros obyektlariga alohida e'tibor qaratiladi. "Madaniy meros obyekti" (jigarrang fondagi) belgisi ostida ko'pincha masjidlar, madrasalar, maqbaralar va ziyoratgohlar piktogrammalari qo'llaniladi (masalan, Registon maydoni, Imom al-Buxoriy majmuasi) [1].

Britaniya dizayni pragmatik va minimalist yondashuvga ega. Harflar uchun maxsus ishlab chiqilgan "Transport" va "Motorway" shriftlari qo'llaniladi. Ranglar va shakllar maksimal darajada tez o'qilishi va tushunilishi uchun optimallashtirilgan. Oddiy qora hoshiyalı uchburchaklar, doiralari, matnli belgilarning ko'pligi bezakdan ko'ra funksionallik muhimligini ko'rsatadi. O'zbekiston dizayni esa standartlashgan va simvolik xarakterga ega. Sovet GOST standartlariga asoslangan dizayn saqlanib qolgan. Belgilarning piktogrammalari ko'proq ramziy va soddalashtirilgan. Qizil hoshiyalı uchburchak (ogohlantiruvchi), qizil hoshiyalı doira (taqiqlovchi), ko'k doira (buyuruvchi) kabi aniq shakllarning qat'iy ma'nolari bor. Raqamli kodifikatsiya tizimi (1.x, 3.x va h.k.) esa belgilar iyerarxiyasini bildiradi.

No footway (Piyodalar yo'lakhasi yo'q): Bu ham ogohlantirilmaydigan holat. Piyodalar yo'lagining yo'qligi o'z-o'zidan ma'lum hisoblanadi [3].

One lane crossover at contraflow (Qarama-qarshi yo'nalishda bitta bo'lakka o'tish): "Contraflow" (oqimning qarama-qarshi yo'nalishga vaqtincha o'tkazilishi) murakkab amaliyoti O'zbekistonda keng qo'llanilmaydi. Agar shunday holat yuzaga kelsa, u bir nechta soddaroq belgilar va YPX xodimlari yordamida tartibga solinadi. Maxsus "contraflow" belgisi yo'q.

Use hard shoulder (Mustahkamlangan yo'l chetidan foydalaning): O'zbekistondagi aksariyat yo'llarda Britaniya standartlaridagi "hard shoulder" (zaxira yo'lak) mavjud emas. Ular faqat avariya yoki favqulodda to'xtash uchun mo'ljallangan va ulardan vaqtinchalik harakatlanish uchun foydalanish amaliyoti yo'q.

Convoy vehicle, do not overtake (Karvon mashinasi, quvib o'tmang): Bu Britaniyaga xos amaliyot. Yo'l ishlari hududidan mashinalarni past tezlikda olib o'tuvchi maxsus "karvon" mashinasi. O'zbekistonda bu vazifani odatda YPX mashinasi bajaradi va unga bo'ysunish qoidalarda

belgilangan. Mashina ustiga o'rnatilgan matnli belgi standart emas [2].

Slow-moving works vehicle blocking lane (Yo'lakni to'sib turgan sekin harakatlanuvchi texnika): Bu haqda oldindan ogohlantiruvchi maxsus belgi yo'q. Odatda bunday texnikaning o'zida miltillovchi sariq yoki zarg'aldoq chiroqlar bo'ladi, shuning o'zi ogohlantirish hisoblanadi.

Gritting in progress (Muzga qarshi vositalar sepilmoqda): Bu iqlim va texnologiyaga bog'liq belgi. O'zbekistonda qishda yo'llarga qum-tuz aralashmasi sepilsa-da, bu jarayon haqida oldindan ogohlantiruvchi maxsus belgi qo'yish amaliyoti yo'q.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Buyuk Britaniya va O'zbekiston yo'l belgilari tizimi shunchaki harakatni tartibga soluvchi texnik vositalar majmui emas, balki o'zida ikki xalqning falsafasi, ijtimoiy munosabatlari, qadriyatları va tarixiy tajribasini mujassam etgan chuqur lingvomadaniy hodisadir. Bu belgilar o'ziga xos "madaniy matn" sifatida har bir jamiyatning yozilmagan qonuniyatlari va dunyoqarashini ochib beruvchi ko'zgudir. Tahlil natijalari ikki tizim o'rtasidagi fundamental farq kommunikativ strategiyada ekanligini tasdiqlaydi. Britaniya tizimi haydovchini ongli, mas'uliyatli subyekt sifatida tan olib, u bilan pragmatik, axborotga asoslangan va maslahat beruvchi ohangda muloqot qiladi ("Try your brakes", "Advisory route"). Bu yondashuv shaxsiy javobgarlik va vaziyatni mustaqil baholashga undaydi. O'zbekiston tizimi esa, aksincha, Vena konvensiyasi va postsovet standartlariga tayangan holda, buyruqqa asoslangan, markazlashgan va g'amxo'r nazoratni afzal ko'radi. Bu yerda haydovchi qat'iy qoidalarga bo'ysunuvchi obyekt sifatida ko'riladi va belgilar ko'proq taqiqlovchi yoki majburlovchi xarakterga ega ("To'xtamasdan harakatlanish taqiqlangan", "Quvib o'tish taqiqlanadi").

Ushbu kommunikativ farqlar zamirida chuqur madaniy, geografik va tarixiy omillar yotadi. Britaniya belgilari individualizm, inklyuzivlik ("Frail pedestrians"), tabiat va bo'sh vaqtga bo'lgan ehtirom ("Otters crossing", turistik belgilar) hamda post-imperial meros va xususiy mulk daxlsizligini aks ettiradi. O'zbekiston tizimida esa jamoaviylik, oila va bolalar xavfsizligi ("Bolalar"), mehmondo'stlik an'analari ("Choyxona", "Oshxona") hamda mustaqil davlatchilik va chegara nazorati ("Bojxona", "Nazorat posti") kabi qadriyatlar ustuvorlik qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 320 b.
2. Xo'shbaqova N. Ingliz va o'zbek tillarida yo'l belgilariga oid termin birikmalarning struktur-semantik xususiyati. Tamaddun nuri jurnali, 11 (62), 2024. – B. 251-253.
3. Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 138 p.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – Москва: Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.